

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**



**“FALSAFA”  
FANINING  
O‘QUV DASTURI**

**Ta‘lim**

**yo‘nalishi:**

Barcha nomutaxassis yo‘nalishlar talabalari uchun

**Toshkent – 2024**

| Fan/modul kodi<br>FA1104   | O'quv yili<br>2024-2025  | Semestr<br>2                            | ECTS - Kreditlar<br>4         |                            |
|----------------------------|--|---|-------------------------------|----------------------------|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | Ta'lim tili<br>O'zbek/rus  |   | Haftadagi dars soatlari<br>4  |                            |
| 1.                         | <b>Fanning nomi</b>  | <b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b> | <b>Mustaqil ta'lim (soat)</b> | <b>Jami yuklama (soat)</b> |
|                            | Falsafa  | 60                                      | 60                            | 120                        |
| 2.                         | <p style="text-align: center;"><b>I. Fanning mazmuni.</b></p> <p>Falsafa fan sifatida olamdagi voqea-hodisalarning mohiyatini tushunish va ularga munosabat bildirish, insonning o'z hayoti ma'nosi va maqsadini bilish va tanqidiy fikrlash mahoratini shakllantiradi. Falsafa dunyoqarash sifatida "so'zlar, so'zlar va yana so'zlar" orqali inson ongiga ta'sir etadi, unga fikrlash va yo'l tanlash mahoratini o'rgatadi.</p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – talabalarning oliy ta'lim tizimida egallagan dunyoviy, falsafiy, ilmiy va axloqiy bilimlardan ijtimoiy – ma'naviy hayotda maqsadli foydalanish malakalarini shakllantirishdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifalari</b> – talaba yoshlarda falsafiy, ilmiy va axloqiy bilimlarni shakllantirish, falsafiy, tabiiy-ilmiy bilimlarning ijtimoiy ahamiyatini, texnika va texnologiyalarning inson pragmatik ehtiyojlariga javob sifatidagi evolyusiyasi, milliy qadriyatlar, madaniyat va ommaviy madaniyatning o'zaro aloqasi va farqi, dunyoni bilish, haqiqatni anglashda amaliyot va faoliyat uyg'unligini ta'minlashning ahamiyati, tog'ri fikrning ijobiy maqsadlarga erishishdagi o'rni, global korrupsiyaning sabablari va shakllarini bilish, ularga qarshi kurashish, dunyoviy bilim va malakalarni yangilanayotgan O'zbekistondagi islohotlar jarayonida to'liq namoyon qilish, ijtimoiy va professional mas'uliyatni va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish tuyg'usini shakllantirishdan iborat.</p> <p style="text-align: center;"><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p style="text-align: center;"><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p style="text-align: center;"><b>1-MODUL. FALSAFA</b></p> <p style="text-align: center;"><b>1-mavzu. Falsafaning mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi roli</b></p> <p>Falsafaning fan va dunyoqarashga doir mohiyati. Falsafaning predmeti va asosiy masalalari. Falsafiy bilimning strukturasi. Falsafaning asosiy funksiyalari. Falsafaning jamiyatdagi ahamiyati yoki amaliy falsafa. Dunyoqarashning mohiyati, tuzilishi va funksiyalari. Dunyoqarashning tarixiy shakllari: mifologik dunyoqarashning mohiyati va funksiyalari. Diniy dunyoqarashning mohiyati, funksiyalari va tarixiy ildizlari. Diniy e'tiqodning tarixiy shakllari. Falsafiy dunyoqarashning mohiyati. Ilmiy dunyoqarash va unig rivojlanish bosqichlari. Falsafa va fanning mutanosibligi va farqi. Raqamli sivilizatsiya davrida falsafaning yoshlar ongida to'g'ri fikrlash mahorati va mafkuraviy immunitetni shakllantirishdagi ahamiyati.</p> <p style="text-align: center;"><b>2-mavzu. Sharq falsafasining mohiyati va ijtimoiy taraqqiyotdagi roli</b></p> <p>Qadimgi Sharq va G'arb falsafasi vujudga kelishi, rivojlanishining umumiy qonuniyatlari va farqlari. Qadimgi janubiy Sharq (Hindiston) va Shimoliy sharq (Xitoy) falsafasining mohiyati, axloqiy g'oyalarining yoshlar tarbiyasidagi o'rni. Avesto</p> |   |                               |                            |

muqaddas manbasida olamning tuzilishi, shaxs tarbiyasiga oid g'oyalarning hozirgi davrdagi ahamiyati. O'rta asrlarda Sharq va G'arb falsafasi rivojlanishining umumiy belgilari. Al-Farg'oniy, Al Xorazmiy, Al-Beruniyning tabiiy-ilmiy, axloqiy, siyosiy qarashlarining mohiyati va hozirgi davrdagi ahamiyati. Al-Forobiy, Ibn Sinoning inson tarbiyasiga oid go'yalari va ularning hozirda davdagi ahamiyati. Sharq mutafakkirlari J.Rumi, G'azzoliy, Nizomulmulk, ar-Roziy, N.Ganjaviy, A.Jomiy, A.Navoiy, M.Ulug'bek, Mashrab, Gulxaniy, Ogahiy, Furqat, Muqumiy, Maxtumquli, A. Donish axloqiy qarashlarining yangi O'zbekiston yoshlari tarbiyasidagi o'rni. Tasavvuf falsafasida olam va odam haqidagi qarashlarning mohiyati. Yu. Hamadoniy, A.Yassaviy, B. Haqshbandiy axloqiy ta'limotining shaxsning ma'naviy kamolotga erishishdagi o'rni. XIX-XX asrda jadidizmning rivojlanishidagi ijtimoiy tarixiy sharoitlar. I. Gaspirali, M. Abdurashidxonov, A. Avloniy, M. Behbudiy, A.Fitrat, Cho'lpon, A.Qodiriy, U.Nosir ma'rifatparvarlik g'oyalarining yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishdagi roli. XX-XXI asr o'zbek falsafasining barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi ijtimoiy ahamiyati.

### **3-mavzu. G'arb falsafasining ustuvor yo'nalishlari va ularning fan taraqqiyotiga ta'siri**

Qadimgi Yunon falsafa maktablarining fan taraqqiyotiga ta'siri. Geraklitning dunyo o'zgaruvchanligi haqidagi g'oyalarining mohiyati. Sokrat qarashlarining ijtimoiy ahamiyati. Demokritning atomlar haqidagi ta'limotining olam haqidagi qarashlar transformatsiyasidagi o'rni. Platonning davlat boshqaruvi haqidagi g'oyalari. Aristotelning axloq haqidagi qarashlarining hozirgi davrda shaxs tarbiyasidagi ahamiyati. Ilk O'rta asrlarda Yevropa falsafiy tafakkuri rivojlanishining asosiy shakllari: apologetika va patristika. Avgustin ta'limotining olam va odamni tushunishdagi ahamiyati. Sxolastika maktabi g'oyalarining jamiyat taraqqiyotidagi roli. U.Okkam va Foma Akvinskiy ta'limotining jismlar mohiyatini tushunishdagi ahamiyati. Uyg'onish davri Yevropa falsafasida panteizm, antroposentrizm va dialektikaning rivojlantirilishi. Yangi davr G'arb falsafasida borliq va jamiyatni bilish haqidagi qarashlar talqini. XVIII asr Yevropa ma'rifatparvarlari g'oyalarining axloqiy tarbiyadagi roli. Nemis klassik falsafasining inson mohiyatini tushunishdagi ahamiyati. XIX-XX asr G'arb falsafasining mohiyati va uning shaxslararo munosabatlarga ta'siri. XXI asr G'arb falsafasining yo'nalishlari va uning iste'mol jamiyatini shakllantirishdagi o'rni. G'arb falsafasida madaniyat industriyasining tanqidi va psixanaliz ta'limotining zamonaviy shaxs tarbiyasidagi roli.

### **4-mavzu. Borliq falsafasi (Ontologiya)**

Borliq tushunchasining mohiyatiga oid falsafiy va tabiiy ilmiy konsepsiyalar. Borliq va yo'qlik dialektikasi. Sof borliq g'oyasi. Falsafa tarixida borliq haqidagi qarashlar dialektikasi. Borliq shakllarining tasnifi. Biosfera va noosfera haqidagi ta'limotlar, Koevolyutsiya-(ekotizimda o'zaro ta'sir qiluvchi biologik turlarning birgalikdagi moslashish evolyutsiyasi,) va environmentalizm (ekologiya nazariyalarida borliqni asrash g'oyasi). O'zbekistonda "Yashil makon" umummilliy dasturining tabiatni asrashdagi ahamiyati. Borliqda substrat, substansiya va materiyaning o'zaro aloqasi. Materiya o'zaro ta'limotiga oid konsepsiyalar tasnifi. Borliqda materiya harakatining mohiyati, tiplari va shakllari. Borliqda makon va vaqtning substansional, relatsion, dinamik va statik konsepsiyalari. Makon va vaqtning topologik va metrik xossalari. Ijtimoiy makon

va ijtimoiy vaqt dialektikasi.

### **5-mavzu. Rivojlanish falsafasi**

Borliqda narsa va hodisalarning paydo bo'lishi, shakllanishi, o'zgarishi, rivojlanishi va taraqqiyotining o'zaro aloqadorligi. Rivojlanish qonunlarining mohiyati, ularning tabiiy va ijtimoiy jarayonlardagi o'rni. Falsafa kategoriyalarining tasnifi va ularning rivojlanish jarayonlaridagi roli. Rivojlanishda borliqning chekliligi va cheksizligi, potensial va aktual cheksizlik. Borliqning birligi va rang barangligi. Borliqning rivojlanishida geotsentrik va nogeotsentrik moddiy tizimlar, kengayuvchi olam, universal kosmik gologramma, torsion maydonlar haqidagi ilmiy dalillar. Qizil siljish nazariyasining rivojlanish va o'zgarish jarayonlariga ta'siri. In'ikos nazariyasi va uning rivojlanish jarayonidagi o'rni. R.Anoxin in'ikos nazariyasining mohiyati.

### **6-mavzu. Bilish falsafasi**

Bilish jarayonining mohiyati va mezonlari. Bilish va bilimga oid yondashuvlar tasnifi: sensualizm, empirizm, ratsionalizm, otpimizm, skeptitsizm va agnostitsizm. Bilimning asosiy turlari va shakllari. Bilishda sub'yekt va ob'yektning o'zaro aloqasi. Bilishning faoliyat turi sifatida o'zgaruvchanligi. Bilishdagi qarama-qarshiliklar. Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy, intuitiv bilish darajalari. Haqiqat bilishning mezon. Isbotlash va rad etish, yolg'on va yanglishishning haqiqatni bilishdagi roli. Bilish natijalarini baholashning ahamiyati. Bilishning ma'naviy qadriyatlar. Amaliyot haqiqatning mezon. Metod, metodika metodologiyaning o'zaro aloqasi va farqi. Bilish metodlarining tasnifi, o'zaro aloqasi va farqi. Ijtimoiy gumanitar fanlar metodlari. Hozirgi zamon metodologiyasi.(Kumatoid, keys stadi, abduksiya). Bilish jarayonida tushunish va tushuntirishning roli. Simvol va semiotik belgilarning ma'noni ahglashdagi ahamiyati.

### **7-mavzu. Mantiq**

Mantiqning mohiyati. Formal, noformal, dialektik, matematik mantiqning o'zaro aloqasi. Mantiqiy semantikaning fikr ravonligini ta'minlashdagi roli. Mantiq va ritorika, til va mantiq dialektikasi. Tafakkur qonunlari va shakllari. Tafakkur va til mutanosibligi. Tushuncha tafakkur shakli. Tushunchaning turlari va ular orasidagi aloqalar. Hukmning mohiyati va qoidalari. Bo'linishning mohiyati, turlari va qoidalari. Oddiy hukmlarning turlari va tarkibi. Qat'iy hukmlarning tasnifi. Murakkab hukmlar. Deduktiv xulosa chiqarishning fikr ravonligini ta'minlashdagi roli. Bo'linuvchi kategorik xulosa, shartli ajratuvchi xulosa. Sillogizm nazariyasi. Murakkab va murakkab qisqartirilgan sillogizm. Induktiv xulosa. Ommabop induksiya. Ilmiy induksiya. Analogiya bo'yicha xulosa. Analogiya turlari. Argumentatsiya (mantiqiy asoslar)ning tarkibi, sub'yektlari, tuzilishi. Bahslashish usullari, asoslash va tanqid qilish. Isbotlash va rad qilishda dalillarning o'rni. Tanqidiy tafakkurning mantiqiy xulosa chiqarishdagi roli. Gipotezaning mohiyati, turlari, gipotezani tekshirish. Savollar va javoblar mantig'i. Savollar va javoblar turlari.

### **8-mavzu. Jamiyat falsafasi**

Jamiyat tushunchasining mohiyati va uning rivojlanish bosqichlari. Jamiyatning paydo bo'lishiga oid qarashlar dinamikasi. Jamiyat rivojlanishining iqtisodiy asoslari, mulk, moddiy ishlab chiqarishning mohiyati. Xususiy tadbirkorlik va ishbilarmonlikning iqtisodiy barqarorlikga erishishdagi roli. Jamiyat rivojining siyosiy

asoslari. Davlat boshqaruvi shakllari. Fuqarolik jamiyati, davlat boshqaruvi va demokratiya. Jamiyat rivojining ma'naviy asoslari. Ma'naviy hayot mezonlari. Ma'naviy kamolot omillari. Jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy asoslari. Ijtimoiy birliklar va guruhlar, etnik birliklar, tabaqalar, sinflar, hududiy guruhlar. O'zbekistonda fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishning asosiy yo'nalishlari. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va yangilangan konstitutsiyaning ijtimoiy ong transformatsiyasiga ta'siri. O'zbekistonda "Yangi ma'naviy muhit yaratish" va "Ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi.

### **9 - mavzu. Tarix falsafasi, sivilizatsiya va madaniyat**

Tarix falsafasining tuzilishi, funksiyalari va tarixiy jarayon mazmunini belgilashga oid yondashuvlar. Sivilizatsiya tushunchasi va uning tiplari. Sivilizatsiya va madaniyat mutanosibligi. Madaniyat tushunchasi, uning tuzilishi va ijtimoiy funksiyalari. Madaniyatning ichki tuzilishi. Madaniyatning sub'ekti. Madaniy faoliyat dinamikasi. Madaniy predmetlilik va madaniy kommunikatsiyaning ahamiyati. O'zbek madaniyati va etnomadaniyat dialektikasi. Madaniyatlararo kommunikatsiyaning axloqiy tarbiyaga ta'siri. Dunyo xalqlari madaniyatidagi umumiylik va farqlar. Ommaviy madaniyatning shakllanish tarixi va uning turlari: aksilmadaniyat, submadaniyat, populyar madaniyat, ekran madaniyati. XXI asrda an'anaviy va zamonaviy madaniyat uyg'ung'unligini ta'minlashning ahamiyati va ularning axloqiy tarbiyadagi o'rni.

### **10 - mavzu. Inson falsafasi (Falsafiy antropologiya)**

Falsafada insonning mohiyatiga oid qarashlar tasnifi. Insonni tushunishga dualizm, monizm va fan nuqtai-nazaridan yondashuv. Insonning ko'p o'lchovligi. Insonning bioijtimoiy, madaniy mohiyati. Passionarlik, subpassionarlik va muvofiq odamlar nazariyasining mohiyati. Ijtimoiy ongning strukturasi va funksiyalari. Ijtimoiy ong shakllari. Ijtimoiy psixologiya. Inson faoliyatida onglilik va ongsizlik dialektikasi. Ong, til va tafakkur dialektikasi. Texnologik taraqqiyotning klipli tafakkur shakllanishiga ta'siri. Falsafiy antropologiyaning mohiyati, predmeti va vazifalari. Hayotning ma'nosi va unda insonning vazifasi. Iztirob, qo'rquv, agressiyaning tabiati. O'limning tabiiyligi va muqarrarligi (tabiiy o'lim, suitsid, parasuitsid, evtanaziya, esxatologiya). Antrop tamoyilning mohiyati. Inson faoliyatining tuzilishi va atributlari. Inson faoliyatida onglilik va maqsadga muvofiqlikning ahamiyati. Muloqot faoliyat sifatida. Mehnat, o'yin, ijodning faoliyat turi sifatida inson kamolotiga ta'siri. Inson faoliyatini tartibga solishning ahamiyati.

### **11-mavzu. Qadriyatlar falsafasi**

Qadriyat tushunchasining ma'nosi va uning umumiy tasnifi. Qadriyat kategoriyasining mazmuni. Qadriyatlarining turlari: moddiy va ma'naviy, umuminsoniy, milliy, shaxsiy, axloqiy qadriyatlar. Jamiyat va inson hayotida qadriyatlarining roli. Oilaning qadriyatga doir jihatlari. Oila sha'nini saqlashda avlodlararo vorisiylikning o'rni. Oiladagi ajralishlar va uning inson psixologiyasiga salbiy ta'siri. Oilaviy qadriyatlarga nisbatan an'anaviy va noan'anaviy yondashuvlar. Davlatning oila farovonligi va barqarorligini ta'minlashdagi o'rni. Muhabbat va nafrat, baxt va baxtsizlikning qadriyatli jihatlari. Gender tengligini ta'minlashning iqtisodiy-ijtimoiy omillari. Qariyalarni qadrlashning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati va yoshlar

tarbiyasidagi o`rni. Mahalla – o‘zbek milliy qadriyati sifatida. Sog‘likning qadriyat sifatidagi ahamiyati. Uchinchi ming yillikda qadriyatlarning transformasiyasi. Qadriyatlar va baholar dinamikasi. Qadriyatlarni baholashning ahamiyati. Sog‘lom turmush tarzining qadriyatli jihatlari. Jamiyatda qadrlanish va qadrsizlanish jarayonlari.

### **12-mavzu. Etika**

Etikaning mohiyati va ahamiyati. Zamonaviy axloqning asosiy sohalari: metaetika, normal etika, amaliy etika. Etikaning asosiy kategoriyalari. Etikada ijtimoiy adolat tamoyili. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov. Sharq va G‘arb mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. Axloqning shakllanishiga oid genetik va diniy yondashuvlar tasnifi. Gedonizm va evdomonizm ta`limotlarining axloqiy tarbiyaga ta`siri. Zamonaviy axloqiy tarbiyada kosmopolitizmga moyillik. Kasbiy axloq va mehnat etikasi: komp’yuterdan foydalanish etikasi, blogger etikasi, xaker etikasi, kibernetika, tibbiy etika, yuridik etika, kutubxona etikasi, ijtimoiy hayot etikasi. Siyosat va axloq o‘rtasidagi munosabat. Siyosatda professional etika va yangi axloq siyosati. Ekologik etika. Ishbilarmonlik etikasi. Davlat tashkilotlari va davlat xizmati tizimidagi kasbiy etika.

### **13-mavzu. Estetika**

Dunyoni estetik idrok etishning mohiyati. Estetik ong va uning strukturasi. Estetikaning asosiy kategoriyalari: ulug‘vorlik, tubanlik, fojaviylik, kulgililik, mo‘jizaviylik, xayoliylik va qiziqarlilik. Sharq va G‘arb mutafakkirlarining estetik qarashlari. Estetikaning zamonaviy yondashuvlari. Estetik did va olamni estetik idrok etishning shaxs kamolotiga ta`siri. Olamni virtual va vizual estetik idrok etishning farqlari. Badiiy asarni estetik idrok etishning darajalari. Estetik dizayn va landschaft dizaynda milliylik va zamonaviylik dialektikasi. San‘at dunyoni estetik idrok etish shakli. San‘atning turlari va funksiyalari. Xalq amaliy san‘atining estetik jihatlari. San‘atdagi inqiroz (degumanizatsiya). Tushkunlik san‘ati va undan chiqish mahorati. Yoshlarda estetik didni tarbiyalashning ahamiyati.

## **2-MODUL. GLOBAL JARAYONLAR DIALEKTIKASI**

### **14-mavzu. Global jarayonlar va barqaror taraqqiyot falsafasi**

Globallashuv, globalistika va barqaror taraqqiyot jarayonlarining mohiyati. Global jarayonlarning shakllanish tarixi. Global muammolarning mezonlari va darajalari. Globallashuvning fundamental asoslari va xususiy jihatlari. Global muammolarning tasnifi: urush va tinchlik, demografiya, migratsiya, ta`lim, energetika, ekologiya, oziq-ovqat, urbanizatsiya. Global jinoyatchilik va uning oldini olishda xalqaro hamkorlikning zarurati. Sportning globallashuvi va uning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi o`rni. Global etika muammolari. Global makonda texnika, axborot texnologiyalari, raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt va virtual reallikning mutanosibligi. Nanotexnologiyalar va biometrik identifikatsiya qilish texnologiyalarining jamiyat taraqqiyotiga ta`siri. Global muammolarni bartaraf etishda xalqaro kuchlar birlashuvining ahamiyati. Global mumamolarni hal qilishda xususiy va umumiy manfaatlar mutanoosibligi.

### **15-mavzu. Korrupsiyaning mohiyati, oqibatlar va unga qarshi kurash mexanizmlari**

Korrupsiya tushunchasining mohiyati, tarixiy ildizlari va jamiyatda namoyon bo‘lishiga oid qarashlar tasnifi. Korrupsiyaning sabablari. Korrupsiyaning ijtimoiy

hayotdagi ko‘rinishlari va uning axloqiy tarbiyaga salbiy ta’siri. Siyosiy, g‘oyaviy va iqtisodiy korrupsiya – xavfsizlikka tahdid. Kadrlar korrupsiyasi va uni bartaraf etish mexanizmlari. Xalqaro korrupsiya iqtisodiy-siyosiy manfaatlar to‘qnashuvi oqibati sifatida. O‘zbekistonda korrupsiyaning turlari: favoritizm, nepotizm, kronizm va mahalliychilikni bartaraf etishda jamoatchilik nazorati va shaxsiy mas’uliyatning o‘rni. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning yo‘nalishlari va huquqiy asoslari. Korrupsion jinoyatlarning oldini olish shakllari va asosiy yo‘nalishlari. Korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro tajriba. O‘zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro hamkorligining maqsadlari va yo‘nalishlari. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashda OAVning o‘rni va axloqiy ahamiyati.

### **III. Seminar mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

#### **Seminar mashg‘ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Falsafaning mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi roli
2. Sharq falsafasi va uning ijtimoiy taraqqiyotdagi roli
3. G‘arb falsafasining ustuvor yo‘nalishlari va ularning fan taraqqiyotiga ta’siri
4. Borliq falsafasi
5. Rivojlanish falsafasi
6. Bilish falsafasi
7. Mantiq
8. Jamiyat falsafasi
9. Tarix falsafasi, sivilizatsiya va madaniyat
10. Inson falsafasi
11. Qadriyatlar falsafasi
12. Etika
13. Estetika
14. Global jarayonlar va barqaror taraqqiyot falsafasi
15. Korrupsiyaning mohiyati, oqibatlari va unga qarshi kurash mexanizmlari

*Seminar mashg‘ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyalardan bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.*

### **IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

#### ***Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:***

1. Falsafaning mohiyatiga oid Sharq va G‘arb mutafakkirlari ta’riflarini tasniflash va ular bo‘yicha prezentatsiya tayyorlash.
2. Senekaning “Lutsiliyga axloqiy xatlari” asarini o‘qish va shu xatlar asosida talabalarning o‘z hayoti va faoliyatiga baho berilgan esse tayyorlash
3. Abu Nasr Forobiy va G‘azzoliyning falsafa ilmiga oid qarashlarini qiyosiy tahlil etish (Forobiyning “Siyosat falsafasi” va G‘azzoliyning “Kimyoi saodat” asarlari asosida).
4. Noklassik ontologiyaning yo‘nalishlari va mohiyati bo‘yicha esse tayyorlash (M.Xaydeggerning Borliq va vaqt asari asosida)
5. “Aristotel, Forobiy va Kant ontologiyasida kategoriyalarning tasnifi” mavzusida esse tayyorlash, (krossvord tayyorlash).

|    |  |
|----|--|
|    | <p>6. A.Fitratning “Oila asari”dagi oila qurish tartiblari va farzand tarbiyasiga oid g’oyalari bo’yicha esse tayyorlash.</p> <p>7. A.Fitratning “Rahbari najot” risolasidagi “Baxtsiz odamlarning ikki toifasi”ga oid qarashlari bo’yicha esse tayyorlash, videorolik tanlovini o’tkazish.</p> <p>8. Avloniyning “Madaniyat to’lqinlari” maqolasi va E.To’fflarning “Uchinchi to’lqin” asarini qiyosiy tahlil etish, prezentatsiya tayyorlash.</p> <p>9. “Axborotlashgan jamiyat va uning istiqbollari” mavzusida esse tayyorlash (A.Toynbi, E.To’ffler asarlarining qiyosiy tahlili asosida).</p> <p>10. “Dunyoni estetik idrok etishda badiiy asarlarning ahamiyati” mavzusida esse tayyorlash.</p> <p>11. “Dunyo xalqlari madaniyatidagi umumiylik va farqlar” mavzusida videorolik tayyorlash.</p> <p>12. “Dunyo xalqlari miflari” haqida krossvord tayyorlash.</p> <p>13. J.Rumiyning “Ovchi va lochin” rivoyatining mohiyati va uning tarbiyaviy ahamiyatini tahlil etish (Ichindagi ichindadir asari asosida).</p> <p>14. “Zamonaviy axloqiy tarbiyaning yutuqlari va kamchiliklari” mavzusida esse tayyorlash.</p> <p>15. “Koevolyutsiya va environmentalizm dialektikasi” mavzusida esse tayyorlash (O’zbekistonga qizil kitobga kiritilgan hayvonlar va o’simliklar haqida ma’lumotlarni aniqlash) O’zbekiston tabiati mavzusida krossvord tayyorlash.</p> <p>16. M.Behbudiyning “Yoshlarga murojaat” va “Muhtaram yoshlarga murojaat” maqolalarini tahlil etish va esse tayyorlash.</p> <p>17. 17. Makiavellining “Xukmdor” asari bo’yicha taqdimot tayyorlash.</p> <p>18. G’azzoliyning “Tavba” asarini tahlil etish va talabalarning o’z faoliyatida mavjud ofatlarni aniqlash va o’ziga baho beruvchi esse tayyorlash.</p> <p>19. Ibn Tufayl va Ibn Sinoning “Xay ibn Yakzon o’g’li” risolasini qiyosiy tahlil etish va esse tayyorlash.</p> <p>20. “Korrupsiyaning mohiyati va uning oqibatlari” mavzusida viktorina o’tkazish, video roliklar tanlovini tashkil etish.</p> <p>21. “O’zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlari” mavzusida esse tayyorlash.</p> <p>22. Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asari bo’yicha jamiyat boshqaruviga oid g’oyalarni tahlil etish va esse tayyorlash</p> <p>23. S.Xantingtonning “Sivilizatsiyalar to’qnashuvi” asarini o’qish va mohiyati bo’yicha esse tayyorlash.</p> <p><i>Mustaqil o’zlashtiriladigan mavzular bo’yicha talabalar tomonidan esselar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</i></p> |
| 3. | <p style="text-align: center;"><b>V. Fan o’qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p><b>Fanni o’zlashtirish natijasida talaba:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>dunyo haqidagi qadimgi va zamonaviy falsafiy bilimlarni o’rganish asosida professional faoliyatni to’g’ri tashkil etish, ijtimoiy mas’uliyatni oshirish, davlat siyosatiga dahldorlik tuyg’usini shakllantirish, ijtimoiy jarayonlarni mustaqil tahlil qilish, Qadimgi, O’rta asrlar, Yangi va eng Yangi davr Sharq va G’arb falsafasining asosiy g’oyalari, G’arb renessansi shakllanishiga O’rta asr Sharq falsafasining ta’siri, Yangi va eng yangi davr falsafasining muhim xususiyatlari bo’yicha tasavvurga ega</li> </ul>  |



|    |   |
|----|---|
|    | <p>bo'lishi;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ontologiyaning yo'nalishlari, gen ontologiyasi, bioontologiya, tibbiyot ontologiyasining ijtimoiy ahamiyati, fizik va falsafiy ontologiyaning o'zaro aloqasi va farqlari, axborotlashgan jamiyatda texnologiyalardan foydalanishda inson va jamiyat manfaatlarini himoya qilish, tabiat ontologiyasida biosfera va noosferaning o'rni, ong ontologiyasining transformasiyasi, ijtimoiy ekologiya, ekologik ta'lim va tarbiya haqida bilishi va ulardan foydalana olishi;</li> <li>• Internet ijtimoiy tarmoqlarida axborotni tanlash va ulardan foydalanish usullarini egallash; o'zining kasbiy faoliyatida mustaqil qarorlar qabul qilish, bakalavriatning mos yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lish, kiberterrorizm, kiberzo'raonlik (cyberbullying)ga qarshi mafkuraviy immuniteti shakllangan bo'lishi, globallashuv va barqaror taraqqiyotning omillari, korrupsiyaning global ma'naviy inqiroz oqibati sifatida barqaror taraqqiyotga salbiy ta'sirini bilish, unga qarshi kurashda dahldorlik tuyg'usi shakllantirish, ijtimoiy jarayonlarni prognozlashtirish, jismoniy va ruhiy sog'lik, tafakkur xavfsizligini ta'minlash, sog'lom turmush tarziga rioya qilish, tanqidiy tafakkur imkoniyatlaridan jamiyat barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy nazorat va shaxsiy mas'uliyatni oshirish maqsadlarida foydalanish bo'yicha malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.</li> </ul> |
| 4. | <p style="text-align: center;"><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlarda (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javob)</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>  |
| 5. | <p style="text-align: center;"><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>  |
| 6. | <p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021.667-b.</li> <li>2. Davronov Z., Shermuhamedova N, Qahharova M, Nurmatova M, Husanov B, Sultonova A. Falsafa, o'quv qo'llanmasi – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b</li> <li>3. Saifnazarov I., Muxtorov A., Ernazarov D, Usmonov F. Falsafa, o'quv qo'llanmasi – Toshkent: Innovation rivojlanish nashriyot –matbaa uyi, 2021. – 424 b.</li> <li>4. Madaeva Sh., Shermuhamedova N.va boshqalar Falsafa, o'quv qo'llanmasi. – Toshkent: 2019</li> <li>5. Чумаков А.Н. Философия, учебник.– М.: INFRA. 2018.– 320 с.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 416 b.</li> <li>7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik davlatini birgalikda quramiz. –</li> </ol>   |

|    |  |
|----|--|
|    | <p>Toshkent: O‘zbekiston, 2021</p> <p>8. Muxammadjonova L.A. Davlat xizmatchisi etikasi va imidji. – Toshkent: Universitet, 2017.</p> <p>9. Ўзбекистоннинг коррупцияга қарши кураш стратегияси/Алиев Б, Мухтаров А., Норов Т., / ўқув қўлланма. – Тошкент: ТДИУ, 2022. –320 б.</p> <p>10. Nishonova O.Dj. O‘zbek etnomadaniyatining estetik xususiyatlari. – Toshkent: Universitet, 2023</p> <p>11. Раматов Ж. Лойко А., Жоголь Н., Кушаков Ф. Основные проблемы философии. –Ташкент: 2022</p> <p>12. Саифназаров И. Мухтаров А., Абдуллаханова Г, Алиматова Н., Эрназаров Д, Философия. Учебник (для вузов экономических специальностей). – Ташкент: Innovation rivojlanish nashriyoti – matbaa uyi. 2021. – 424 с.</p> <p>13. Hakimov N.X. Amriddinova D. Jadidchilik ta’limotida komil inson konsepsiyasining falsafiy mohiyati.–Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.</p> <p>14. Sharipov M. Mantiq. – Toshkent: Universitet, 2003</p> <p>15. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish –Toshkent: Innovasiya –Ziyo, 2024.</p> |
| 7. | <p>Fan dasturi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitet huzuridagi Muvofiqlashtiruvchi soha Kengashining 2024 yil ___ avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.</p>   |
| 8. | <p style="text-align: center;"><b>Fan/modul uchun mas’ullar:</b></p> <p><b>Shermuxamedova N.A.</b> – O‘zMU “Falsafa va ma’naviyat asoslari” kafedراسи mudiri, falsafa fanlari doktori, professor</p> <p><b>Djalilov B.X.</b> – O‘zMU “Falsafa va ma’naviyat asoslari” kafedراسи dotsenti, falsafa fanlari nomzodi</p> <p><b>Qahharova M.</b> – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori, f.f.d.</p> <p><b>Muhammadjonova L.A.</b> – O‘zMU “Etika va estetika” kafedراسи professori, falsafa fanlari nomzodi.</p> <p><b>Sulaymonov J.</b> – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Falsafa” kafedراسи mudiri, falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)</p>  |
| 9. | <p style="text-align: center;"><b>Taqrizchilar:</b></p> <p><b>To‘rayev Sh. N.</b> – Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent</p> <p><b>Saifnazarov I.S.</b> – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, falsafa fanlari doktori</p> <p><b>Abdullaeva N.B.</b> – O‘zMU “Falsafa va ma’naviyat asoslari” kafedراسинing professori, falsafa fanlari doktori</p>   |